

– P. 133-163; Cristofaro S. ‘Descriptive Notions vs. Grammatical Categories: Unrealized States of Affairs and “Irrealis”?’ Language Sciences 34: 2012. – P. 131-146.

4. Givón T. Irrealis and the Subjunctive. Studies in Language 18. 1994. – P. 265-337.

**O'ZBEK TILIDA TANA HARAKATINI IFODALOVCHI
FE'L LEKSEMALARINING INGLIZ TILIDAGI
EKVIVALENTLARINI O'RGANISH JARAYONIDAGI
MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI**

Nigora AVEZOVA

*O'zbekiston davlat jahon tillari
universiteti katta o'qituvchisi*

***Annotatsiya:** So'z shakli, o'zaro bog'langan so'zlarning semantik tuzilishi va ularning nutqda ishlatilishi turli xil tillarda turlichadir. O'zbek va ingliz tillaridagi tana harakati a'zolarini ifodalovchi fe'llar o'zaro qiyoslanganda, har ikki tilda ham bunday fe'llarning ifodalanishida o'xshash va farqli jihatlar mavjud ekanligi aniqlandi.*

Hozirgi kunda dunyodagi globallashuv jarayonlari bois, har bir fanda qator yangicha yondashuvlar vujudga kelmoqda. Shu bilan bir qatorda xorijiy tillarni yaxshi o'zlashtirib, ikkala tilda ham birdek tarjima jarayonlarini amalga oshiradigan kadrlarga ehtiyoj oshib bormoqda. Bu jarayonda matnlarni, frazeologik birliklarni o'zbek tilidan ingliz tiliga yoki aksincha, ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilishda, yekvivalentlikni aniqlashda qator qiyinchiliklar yuzaga kelmoqdaki, ularni yechimini topish dolzarb masalalardan sanaladi. U yoki bu birikmalarni o'zbek tilidan chet tiliga tarjima qilishda tarjimon albatta, chet tilining leksik, grammatik va stilistik xususiyatlari bilan bog'liq qiyinchiliklarni hal qilish uchun tarjima usullarini tanlash va ulardan to'g'ri foydalanish qobiliyatiga ega bo'lishi darkor. Tarjima jarayonida qiyosiy tilshunoslikdagi juda ko'p jihatlariga e'tibor qaratish zarur. Ingliz tilidagi so'zlar bilan o'zbek tilidagi so'zlarning turli xil xususiyatlarini qiyosiy o'rganish ingliz va o'zbek tilidagi so'zlarni turli xil xususiyatlari bilan farqlanishini ko'rsatadi.

So'z shakli, o'zaro bog'langan so'zlarning semantik tuzilishi va ularning nutqda ishlatilishi turli xil tillarda turlichadir. Har bir tilning o'zining leksik tuzilishi mavjud,

lekin hamma ma'nolarda emas, ya'ni ingliz tilidagi so'zning ma'nosini ifodalovchi o'zbek tilidagi so'zni topish mumkin. Misol uchun, "hand" so'zining ma'nolarini uning ma'nosini ifodalovchi "qo'l" so'zi bilan taqqoslab ko'rilsa, to'g'ri keladi. Shunga qaramay, o'zbek va ingliz tillarida o'zaro bog'langan so'zlar turli xil yasama so'zlarni hosil qiladi. Misol uchun: "hand" (handful, handiness), "qo'l" (qo'lla, qo'lsiz, qo'lli)¹⁰⁷. O'zbek va ingliz tilidagi so'zlarning leksik valentlik darajasini solishtirilsa, bir xil emasligi ko'rinadi. O'zbek tilidagi "ko'tarma" so'zi "qo'l" va "stul" kabi otlar bilan birikishi mumkin. Lekin uning ma'nosini ifodalaydigan ingliz tilidagi "to raise" fe'li "hand" oti bilangina birika oladi ("to raise hands", lekin "to raise chair" emas, balki "to lift chair bo'ladi")¹⁰⁸. Misollardan ko'rinib turibdiki, tarjima qilishda har bir tilning o'z xususiyatini inobatga olgan ma'qul bo'ladi.

Ma'lumki, shaxs va narsalarning jismoniy faoliyati natijasida ro'y bergan harakatni bildiruvchi fe'llar harakat fe'llari hisoblanadi. Masalan, yurmoq, yugurmoq, chiqmoq, bormoq, qimirlamoq, yelmoq, sudralmoq, sakramoq, uchmoq, o'tmoq, silkinmoq va hokazo. O'zbek tili tilshunosligida harakat tarzi shakllari o'rganilishini uch katta bosqichga ajratishadi. Buni o'zi bu guruh fe'llarini ingliz tiliga tarjima qilishning murakkab ekanligini ko'rsatadi.

Har bir tildagi terminlarning o'ziga xos uslubi bo'lib, ularni tarjima qilishda xalqning, mentalitetning, tilning kelib chiqish tarixini bilish darkor. Olimlarning terminshunoslik sohasidagi tilshunoslik ishlanmalarini tizimlashtirish borasidagi eng fundamental tadqiqotlar terminologik tizimlarni o'rganishda quyidagi jihatlarga, xususan:

- 1) terminlarning ma'nosi va morfologik jihatlarning xususiyatlari;
- 2) ilmiy taraqqiyot kontekstida atamalar semantikasi evolyusiyasini hisobga olgan holda ma'noviy tarkibiy qismi (semasi)ni o'rganish;
- 3) terminologik tizimlarni tegishli guruhlariga moslashtirish va tashkillashtirish;
- 5) turli tillar guruhlaridagi terminologik tizimlarni taqqoslash;

¹⁰⁷ Гофуров И. ва бошқалар. Таржима назарияси: Ўқув қўлланма. – Тошкент: Тафаккур-бўстони, 2012. – Б. 21

¹⁰⁸ О'sha kitob. О'sha bet.

6) leksikografik amaliyotga yordam beradigan amaliy jihatini aniqlashga o'rganishga alohida e'tibor berildi¹⁰⁹.

O'zbek tilidagi harakat fe'llarining sinonimlik xususiyatlari o'rganilganda, ko'p ma'noni kasb etgan bir harakat fe'li ikki yoki undan ortiq ma'noga ega o'zaro sinonimik qatorni tashkil etishi mumkinligi ma'lum bo'ldi (aynimoq, buzulmoq - look alike, shrink). Harakat fe'llarining sinonimik qatoriga kiruvchi so'zlar tushunchaning belgisini turli daraja bilan ifodalashi mumkin. Sinonimik qatordagi ba'zi so'zlar belgini normal daraja bilan ifodalasa, ba'zilar kuchli darajani ko'rsatishi, ayrimlari esa belgini kuchsiz daraja bilan ham ifodalashi mumkin (ovora qilmoq, sarson qilmoq, sargardon qilmoq - to wander, to wobble). Shuningdek, harakat fe'llarining sinonimik xususiyatini o'rganganda, ularning emosional bo'yoqdorligiga ko'ra, adabiy tilga yoki dialektlarga xos bo'lishiga ko'ra, ko'p yoki oz qo'llanilishiga ko'ra o'zaro farqlanishini ham hisobga olish lozim¹¹⁰.

Harakat fe'llarining antonimlik xususiyati o'rganilganda, ular asosan belgini bildiruvchi antonim so'zlardan (sifatlardan, ravishlardan) yasalgan fe'llar bo'lishi oydinlashadi (kengaymoq-toraymoq, ko'paymoq-ozaymoq, sekinlashmoq-tezlashmoq - to expand-to narrow, to multiply-to slim down, to slow down accelerate). Bundan tashqari, antonimlar qarama-qarshi harakatni bildiruvchi fe'llar orasida ham mavjudligini ko'ramiz (bormoq-kelmoq, kirmoq-chiqmoq)¹¹¹.

Tana harakatini ifodalovchi fe'llar o'zbek tilshunosligida umumiy tarzda o'rganilgan. O'zbek va ingliz tillarida qiyosiy holatda o'rganilmagan.

Tananing sezishi, yo'naltirilishiga oid fe'llarni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

- oyoq bilan bog'liq harakatni ifodalovchi fe'llar: yurmoq, kezmoq, yo'rg'alamoq, pildiramoq, lapanglamoq, gandaraklamoq, do'qonglamoq, tentiramoq, tepkilamok, tyepmoq, toptamoq, depsinmoq, tisarilmoq; Bu fe'llarni ingliz tilidagi variantlari - walk,

¹⁰⁹ В.А.Татаринов // Słupskie prace humanistyczne / Wyższa szkoła pedagogiczna. – Słupsk, 1999. – No 18.- C. 209.

¹¹⁰ Хожиев А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати.-Тошкент.- Ўқитувчи,1974

¹¹¹ Раҳматуллаев Ш., Маматов Н., Шукуров Р. Ўзбек тили антонимларининг изоҳли луғати.-Тошкент: Ўқитувчи, 1980

wander, diaper, peep, lap, gan-peep, clap, tenderloin, kick, cheepmoq, kick, jerk, jerk off.

- qo'l bilan bog'liq harakatni ifodalovchi fe'llar: urmoq, solmoq, ushlamoq, silamoq, tirnamoq, shapaloqlamoq, chimchilamoq, uqalamoq, qitiqlamoq, mushtlamoq, chertmoq, hovuchlamoq, chapak chalmoq, paxsa qilmoq; Bu fe'llarni ingliz tilidagi variantlari - kick, kick, grab, rub, scratch, slap, pinch, rub, tickle, chaigallam, punch, click, rub, bat, fluff. Ko'rinib turganidek bir-biriga yaqin bo'lgan fe'llar bir hil ma'noda tarjima qilinadi. Masalan; urmoq, solmoq – kick ma'nosida tushuniladi.

- yuz harakati bilan bog'liq fe'llar: kulmoq, jirkanmoq, ijirg'anmoq; Bu fe'llarni ingliz tilidagi variantlari - laugh, disgust, creep.

- qosh va ko'z harakati bilan bog'liq fe'llar: suzmoq, yummoq, ochmoq, termulmoq, nazar tashlamoq, nigoh tashlamoq, nazar solmoq, chimirmoq, uchirmoq, qoqmoq; Bu fe'llarni ingliz tilidagi variantlari - strain, roll, unfold, thermolm, take a look, throw a gaze, take a look, pinch, blow, knock

- lab harakati bilan bog'liq fe'llar: burmoq, cho'chchaytirmoq; Bu fe'llarni ingliz tilidagi varianti – crease. Ko'rinib turganidek, bir-biriga yaqin bo'lgan fe'llar bir hil ma'noda tarjima qilinadi. Masalan; burmoq, cho'chchaytirmoq – crease ma'nosida tushuniladi.

- quloq, burun harakati bilan bog'liq fe'llar: eshitmoq, tinglamoq, ding qilmoq, nafas olmoq, jiyirmoq, qoqmoq, tortmoq; Bu fe'llarni ingliz tilidagi variantlari - hear, listen, ding, breathe, squeak, squeak, pull. Ko'rinib turganidek, bir-biriga yaqin bo'lgan fe'llardan jiyirmoq, qoqmoq - squeak bir hil ma'noda tarjima qilinadi.

- gavda harakati bilan bog'lik fe'llar: egilmoq, bukilmoq, gerdaymoq, qiyshaymoq, sulaymoq; Bu fe'llarni ingliz tilidagi variantlari – bend down, twisting, twisting, twitching, twitching. Tarjimada berilganiga nazar tashlansa, bir-biriga yaqin bo'lgan fe'llardan bukilmoq, gerdaymoq, qiyshaymoq, sulaymoq fe'llari- twisting tarzida tarjima qilinadi.

Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, harakat fe'llarining sinonimlari so'zma-so'z ingliz tilidagi tarjimasi bilan tushmagan va shu bilan birga ekvivalentlik darajasi

juda past. Bundan aniqlandiki tana a'zolari xarakatini izohlovchi leksemalarning o'zbek tilidagi ekvivalenti, sinonimlari ingliz tilidagiga qaraganda ko'p.

O'zbek va ingliz tillaridagi tanani harakat a'zolarini ifodalovchi fe'llar o'zaro qiyoslanganda, har ikki tilda ham bunday fe'llarning ifodalanishida o'xshash va farqli jihatlar mavjud ekanligi aniqlandi.

O'zbek tilida mazkur harakat fe'lining bosh semasi anchagina sodda ko'rinishda bo'lsada, mazmunan o'zbek tilidagi leksemalarga deyarli mos keladi. Demak, ingliz tilidagi leksemaning o'zbek tilida ekvivalenti mavjud bo'lsa-yu, ma'noni to'liq ifoda etmasa, o'zbek tilidagi ma'noni yorqinroq ifodalash uchun harakat tarzi shakllari yordamga keladi, shuningdek, bunday hollarda frazeologik birliklar bilan ifoda etish hollari ham kuzatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Baskakov N.A. Karakalpakskiy yazyk, II, Fonetika i morfologiya, ch. 1, M., 1952.
2. Zamonaviy o'zbek tili. Morfologiya. Mualliflar jamoasi. Toshkent, 2009 y
3. Rahmatullayev Sh., Mamatov N., Shukurov R. O'zbek tili antonimlarning izohli lug'ati.-Toshkent: O'qituvchi, 1980
4. Tatarinov V.A.// Słupskie prace humanistyczne / Wyższa szkoła pedagogiczna. – Słupsk, 1999. – No 18.
5. G'ofurov I. va boshqalar. Tarjima nazariyasi: O'quv qo'llanma. – Toshkent: Tafakkur-bo'stoni, 2012.
6. Hojiyev A. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati.-Toshkent.- O'qituvchi, 1974.

ACTUAL PROBLEMS OF MODERN LINGUISTIC RESEARCH

Mastura KHUJANOVA

Uzbekistan State World Languages University

*Teacher of the Linguistic support of
intercultural communication department*

Muxlisaxon SAYFITDINOVA

Xitoy Tianjin Normal universiteti talabasi

Abstract. *Modern linguistic research is undergoing significant transformations due to advancements in technology and the increasing availability of large datasets. This article explores the primary issues facing the field today, focusing on the integration of*